

USTOZGA EHTIROM

Dilrabo Igamuratova

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodim*

Ustozim Rahmatulla Barakaev haqida gapirganda, xotiramdagи saqlangan barchalarini bir maqolaga, nainki bir maqola balki butun boshli kitobga ham sig‘dira olmasligimni anglayman. Chunki yerdan ilm ko‘klariga olib chiqqan ustoz haqida o‘zini tom ma’nodagi shogirdman deb bilgan kishida shunday tuyg‘u bo‘lishi tabiiy. Men ham “Bolalar adabiyoti” fanining jonkuyar, fidoyi, bolalarcha samimiy va kamtar olimining shogirdi sifatida faqat ustozimgagina xos bo‘lgan kamtarlik, bag‘rikenglik, otalarcha mehribonlik va ilmga sadoqat xususida so‘z aytishni joiz topdim.

Ilmiy izlanishga bo‘lgan ishtiyoq meni 2009 yil O‘zR FA O‘zbek tili va adabiyoti institutiga yetaklab keldi. Imtihonlardan o‘tib, aspiranturaga qabul qilinganimdan keyin, “ilmiy rahbar etib Rahmatulla Barakaev tayinlasin” degan qarorni ko‘rganimda, ochig‘i sal hadik bosdi. Boisi u paytda men ustozni talabchan ilmiy ishlar bo‘yicha inistitut kotibi sifatidagina tanir edim. Qolaversa, ustozning hamisha inistitut direktori (o‘sha payti professor) akademik To‘ra Mirzaevning qabulxonasida jiddiy qiyofada ko‘rish har qanday aspirantni sust bostirar edi. Yodimda, ichki bir hadik va hayajon bilan ustozning yoniga borishga qaror qildim. Ustoz ochiq yuz bilan kutib oldi, chamamda mendagi hadikni oldindan payqagan edi. O‘sha kuni ancha suhbat qildik, tasavvurimdagи tumtaroq hislar tumandek tarqab, tashvishga solib turgan his o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketdi. Men ustoz huzuridan chiqar ekanman o‘zim uchun yangi olamni kashf qilgan, o‘zimga bir qadar ishonch hosil qilgan aspirant sifatida odimlardim.

Ustoz bilan keyingi suhbat ilm va mening tanlayajak mavzum xususida bo‘ldi, albatta. Ustoz bu xususda ham o‘zgacha usl bilan yondashdi, dastlab mendagi ilmiy iqtidorni bilmoqchi bo‘ldi shekilli menga: “Sizga adabiyotning qaysi turi yaqin, nasrmi yoki she’riyat?” dedi, men ham istagimni yashirmay nasriy asarlarni yoqtirishimni aytdim. Bu ustozga maqbul bo‘ldi, nazаримда, boshqa savolga o‘rin qoldirmay suhbatimiz mavzusini bolalar adabiyoti nasri tomon o‘zgartirdi hamda rus bolalar adabiyotiga mansub sevimli qahramoni “Bilmasvoy” haqida so‘zlay boshladi. Bu suhbat meni bolalik davrimda o‘qigan kitoblarim va ular bilan bog‘liq xayollarga boshlab ketdi. Ustoz shu suhbat yakunida men uchun mavzu tanladi: “Sizga rus bolalar yozuvchisi N.Nosovning “Bilmasvoy bilan do’stlarining boshidan kechirganlari”, “Bilmasvoy Quyosh shahrida” roman-ertagidagi “so‘zlovchi” nomlar degan mavzu taklif qilaman. Juda alomat ish

bo‘ladi” dedi. Bu ayni men xohlagan mavzu edi. Shu o‘rinda aytish kerakki, bu ustozning tadqiqotchi va mavzu munosabatidagi bog‘liqligini biladigan mohir murabbiy ekanligini ko‘rsatadi.

Mavzuga o‘zim ham qiziqib ketdim, o‘ylab ko‘rsam, rus tilida ma’no anglatib jaranglagan nomlar o‘zbek tiliga qanday ifodalanar ekan degan kabi savollar butun hayolimni egallab oldi. Adoqsiz savollar javob izladim. Ustozim “Fundamental kutubxonaga a’zo bo‘ling, kataloglardan adabiyotshunoslikka, tarjimashunoslikka, bolalar adabiyotiga oid materiallarni, N.Nosovning rus va o‘zbek tilidagi birinchi 1958, 1961 va ikkinchi 1987 yildagi tarjimasini o‘qib chiqsangiz, barcha savollarga javob topasiz” deb vazifalar berdi. Ustoz talabchanlik bilan bizga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, qaysi adabiyotni o‘qish kerakligi haqida o‘z maslahatlarini ayamagan, kezi kelganda mavzuga oid kitoblar olib kelgan vaqtlar ham bo‘ldi. Bu ustozimizning ustozlik maqomida sobit ekanligini ko‘rsatadi.

Ustozning ko‘ngli kabi xonasining eshiklari barcha uchun doimo ochiq edi. Bu eshikdan olimlar ham, ilmi toliblar ham kirib kelaverar, o‘z navbatida ustoz ham hammaga barobar samimiyy munosabatta bo‘lib o‘z maslahatlarini ayamas va har gal huzuriga borganimda “vaqtim yo‘q, keyin keling” degan gapni biror marta ham eshitmaganman. Bu samimiyat hozir ham davom etadi va ustozni ko‘rgani borganimda nim tabassum bilan kutib olib, sog‘lig‘im, oilam va farzandlarim haqida alohida so‘raydi. Bu ustozning chin insonligi va odamgarchiligidini ko‘rsatadi.

Ustozning o‘z ish uslubi mavjudligini, talabchan ilmiy rahbar, qayt’iyatli prinsiplariga ega shaxs ekanligini ilmiy ishimizni bo‘lim muhokamasiga berganimda bilganman. Ishni yakunlab bo‘lim muhokamasiga topshirdim. Bo‘lim xodimlari uni o‘qib o‘z munosabatlarini bildirib, “Ishda ko‘rsatilgan kamchiliklarni tadqiqotchi seminarga qadar to‘g‘irlab oladi, seminarga tavsiya etamiz” deyishganda, ustoz bir so‘z bilan: “Bizga sizlarni fikrlaringiz kerak edi. Ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘irlaydi, yana muhokama qilinib, keyin seminarga ruhsat beramiz” deb qat’iy so‘zlarini aytди, bu meni biroz ranjitdi. Biroq bu ham mening foydamga ish qancha pishiq bo‘lsa, shuncha himoya oson kechishi uchun, qolaversa, ustoz soyasida turib qolmasligim uchun qilingan tadbir ekan.

Ishni yana obdon qayta ishladim va bo‘limga qayta topshirdim. Muhokama pandemiya davriga to‘g‘ri kelgani bois onlayn tarzida o‘tkazildi. Muhokamada tadqiqotimizni tarjimashunoslik prinsipi 10.00.06 – shifriga to‘g‘ri kelishini va bu shifr Institut Ilmiy kengashida yo‘qligi sabab “himoyaga Milliy Universitetining Ilmiy kengashiga yuborlsin” degan qaror berildi. Ochig‘ini aytishim kerakki, “bir martalik kengashga ruxsat olsak” degandimda, ustozga bu gapim yoqmadi. “Xavotirga hojat yo‘q Milliy universitetning Ilmiy kengashdagilar adolatli, yaxshi insonlar, chiroyli himoya qilib kelasiz” deb, oq fotiha berdi. Qat’iyat va uzoqni

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

ko‘zlab berilgan bu qaror vaqt o‘tishi to‘g‘ri bo‘lganiga, “minnatli osh tatimas” degan maqolni boshimga tushishi mumkinligiga amin bo‘ldim. Bu ustozni uzoqni ko‘ra olishini hamda shogird sha’nini ko‘z qarog‘idek asrashini ko‘rsatadi.

Ustozimni otalar kabi suyanch ekanligini, seminar va himoya jarayonida qo‘llab-quvatlashishlari, men uchun qayg‘urayotganini chin dilim bilan his qilib turdim. Bu menga kuch bag‘ishladi, ilmimga ishonch berdi. Seminar sanasi belgilangan so‘ng ustozga qo‘ng‘iroq qilib vaqtini ma’lum qildim. “Albatta, boraman va sizga ishonaman” deb taskin berdilar. Seminar vaqt kelib, meni qattiq hayajon qamrab oldi, buni himoya oldi barcha tadqiqotchilar boshdan kechirishi tabiiy hol. Lekin ustozim kelib o‘z joylarini egallagan so‘ng, hayajonlar chekinib hotirjamlik ko‘nglimga indi. Shu xonada ustoz borligi uchun ham semenardan a’lo o‘tib olganim rost.

Himoyamiz Milliy Universitet huzuridagi Ilmiy kengashining 2021-yilning so‘ngi kunlari 28-dekabrida bo‘lib o‘tdi. Ushbu yutuqqa erishishimizga Ustozimiz professor Rahmatulla Barakaevning xizmatlari juda katta. Ilmiy ishni boshlash va uni yakunlashimizga, o‘zlarini beminnat maslahatlarini ayamagan ustozimdan umrimni ohirigacha minnatdorman.

Inson umri davomida ko‘p yaxshi insonlar bilan ro‘baro‘ bo‘lib, ayrimlari umridagi tub burilishlarga sababchi bo‘larkan. Ustoz kishi uchun ma’naviy ota sifatida yorqin ufqlarga olib chiquvchi pilapoya bo‘larkan. Bizni ham ilmiy unvon olishimizga, hurmat va e’tiborga savovor bo‘lishimizda ustozning mehnatlari ko‘p. Taqdir taqozosi bilan menga Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diplomini 2022 yil 1-fevral sanasida tasdiqlanganishi, ustozning tavallud kunlari bilan to‘g‘ri kelganligi biz uchun unitilmas sovg‘a bo‘lgan. Bu chin e’tiqod, samimiy tilak va ilm yo‘lidagi sadoqat belgisi bo‘lib qoldi.

Ustoz, muborak yetmish yosh qutlug‘ bo‘lsin!